

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14518406>

TASAVVUFNING BADIY IJODDA TUTGAN O'RNI

Anorboyeva Marjona Norbota qizi

JDPU Ozbek tili va adabiyoti
fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Tulishova Gulzina Ravshanovna**

JDPU Ozbek tili va adabiyoti
kafedrası o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada tasavvufning badiiy ijoddagi o'rni, mutasavvuf shoir va yozuvchilarning tasavvufni o'z asarlarida qay tarzda aks ettirishi yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** tasavvuf, badiiy ijod, tariqat, maqomot, ilohiy ishq, komil inson.*

***Abstract:** This article describes the role of Sufism in artistic creation, how Sufism poets and writers reflect Sufism in their works.*

***Key words:** Sufism, artistic creation, sect, authority, divine love, perfect human being.*

***Аннотация:** В данной статье описывается роль суфизма в художественном творчестве, как суфизмские поэты и писатели отражают суфизм в своих произведениях.*

***Ключевые слова:** Суфизм, художественное творчество, секта, авторитет, божественная любовь, совершенный человек.*

Tasavvuf-insonning ruhiy barkamollikka, Oллоhni tanish va tushunishga bo‘lgan intilishi. Badiiy ijod esa qalbdagi his-tuyg‘ularni so‘z, rang yoki ohang orqali ifoda etish san‘atidir. Ular birgalikda inson qalbi va ruhiyati o‘rtasida o‘ziga xos bir ko‘prik vazifasini o‘taydi. Tasavvufning maqsadi insonni nafs va dunyoviy orzular asoratidan ozod qilib, uni ilohiy haqiqatga yetaklashdir. Bu jarayon o‘zida ma‘naviy poklanish va yuksalishni talab qiladi. “Olimlar tasavvufning adabiyot bilan yaqinlashish sabablarini ko‘proq so‘fiylarning raqs-u samo majlislari bilan bog‘laydilar”[1],- deydi olim Najmiddin Komilov. Ya‘ni bunda ko‘pgina so‘fiylar o‘z muridlariga ta‘sir etish uchun ruboiy, g‘azal, kabi kichik she‘riy janrlardan foydalanganlar. So‘zlarini ma‘noli qilib, tasavvufiy g‘oyalar bilan so‘fiyona talqin qilib, eshituvchini hayajonga solganlar.

O‘z asarlarida tasavvufni tarannum etgan mutasavvuf shoirlardan Alisher Navoiy va Jaloliddin Rumiy kabi buyuk shaxslar ruhiy va ma‘naviy izlanishlarini badiiy obrazlar orqali yuksak darajada ifoda etganlar. Jaloliddin Rumiy “Masnaviy” sida insonning Oллоhga bo‘lgan sog‘inchini, bu dunyo hayotining foniy ekanligini, ilohiy muhabbatning beqiyos qudratini go‘zal tashbehlar va ma‘nolar orqali ochib beradi.

Asarda keltirilgan “Namozda gaplashgan hindlar” hikoyati ham ahamiyatlidir. Unda aytilishicha, to‘rtta musulmon bo‘lgan hind masjidida namoz o‘qiyotgan vaqtda muazzin kirib qoladi, ulardan biri hali azon aytish vaqti kelmadi, shekilli, deya gapiradi. Do‘sti o‘zini tutolmay, jim bo‘lishini, namozda gapirilmasligini aytadi. Uchinchi bularga tanbeh berib, namozlari buzilganligini uqtiradi. To‘rtinchisi bo‘lsa, uchalasining ham namozi buzilganini, faqat u gapirmagani va namozi buzilmaganini aytadi. Aslida, ularning barchasi namozda xato qilib, uni buzib qo‘yishgan edi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, har bir inson, avvalo o‘zini anglashi, birov bilan ish tutmasligi lozim, ular bir-biriga o‘rgataman deya o‘zlari ham xatoga yo‘l qo‘yishdi. Shuningdek, bunda Oллоhga haqiqatda oshiq bo‘lgan, unga ibodat qilishni chin dildan ixlos qilgan kishi, hayoliga hech narsani keltirmaydi, faqatgina butun aqli-yu vujudi Oллоhda va uning ibodatida bo‘ladi, degan fikr ilgari surilgan.

Jaloliddin Rumiy she‘riyati ham faqat badiiy ifodaning kuchi emas, balki chuqur ma‘naviy ta‘limot hamdir. Tasavvufiy ijod orqali inson faqat o‘zi uchun emas, balki

butun olam uchun ma'naviy yo'lni ko'rsatadi.

Tasavvufning badiiy ijodga ta'siri shundaki, u adabiyot va san'atni insoniylik va ma'naviyat bilan boyitadi. Misol uchun, Navoiy "Xamsa" sida tasavvufiy tushunchalarni real hayotiy voqealar bilan uyg'unlashtirib, insonning ma'naviy kamolot yo'lidagi kurashlarini tasvirlaydi. "Farhod va Shirin" asarida Farhod, "Layli va Majnun" dostonida Majnun obrazlari tasavvufdagi "majzubi solik" va "soliki majzub" larning haqiqiy namoyondalaridir. Farhod obrazi komil inson timsoli sifatida tariqatning barcha bosqichlari(maqomotlari)dan o'tgan solikni gavdalantirsa, Majnun Ollohga oshiq bo'lgan, bu yo'lda hamma narsadan voz kechgan majzubi solikdir.

Tasavvufda "ishq" - Allohga bo'lgan muhabbatning eng yuqori darajasi. Bu tushuncha orqali shoirlar insonning ruhiy kamoloti yo'lida qanday sinov va maqsadlarga duch kelishini tasvirlashadi, masalan, Alisher Navoiyning "Lison ut-Tayr" asari bu borada o'ziga xos ko'zgudir. Ushbu asar inson qalbining ilohiy olamga sayohatini ramziy ravishda tasvirlaydi. Asarning asosiy qismi qushlarning munozarasidan boshlanadi. Unga ko'ra, ko'pgina qushlar o'rtasida mansab va martaba masalasida kelishmovchiliklar paydo bo'ladi. Hudhud degan qush bunga yechim topish uchun ularga odil podshoh zarurligini aytib, bunga faqat Semurg' qushi munosib ekanini uqtiradi. Qushlar uning ta'rifini, bu qushning ularga aloqadorlik belgilarini eshitgach yo'lga tushishadi. Yo'l davomida ular turli mashaqqatlarni boshdan kechiradi. Qushlarning ko'pchiligi bu azoblarga dosh berolmay, o'z uzrlarini aytib ortga qaytishadi. Hudhud qush bo'lsa, ularning bahonasiga mos hikoyatlarni aytib, javob qaytaradi. Yo'l davomida faqatgina haqiqiy ishqqa erishgan, komillikka yetishgan inson timsollari bo'lgan qushlarga manzilga yetib, o'zlarining Semurg' qushi ekanligini anglab yetadi. Asarda ular yurgan yetti vodiy ham tariqatdagi maqomotlari singari nomlanib, xuddi shu bosqichlarni bosib o'tadi. "Nafsni tiyish, mol-dunyo va siym-u zarga hirs qo'yimaslik, himmat, insof kabi inson ma'naviy takomilida muhim o'rin tutuvchi axloqiy xislatlarning Hudhud tilidan qilingan bayoni mazmun jihatidan shoirning "Hayrat ul- Abror", "Saddi Iskandariy", "Mahbub ul-qilib" va boshqa asarlarida shu xususda keltirilgan fikrlariga hamohangdir".[2]

Shu tariqa tasavvuf va badiiy ijod inson ruhiyatining eng nozik qirralarini ochib beradi va odamlarni ma'naviy yuksalishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf va badiiy ijod insonga Ollohni tanish, qalbni poklash va hayotni chuqur anglash yo'lida yorug' bir chiroqdir. Mutasavvuf shoir va yozuvchilar asarlarida tasavvufiy g'oyalar yorqin aks etgan. Bu esa madaniyat va san'at tarixida o'chmas iz qoldiruvchi manbaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. -T., 2019.
2. Dilnavoz Tursunaliyeva. "Lison ut-tayr" dostonida axloqiy illatlarning tanqidi. 2023.2018.
3. Jaloliddin Rumi. Ma'naviy masnaviy. - T., 1999.
4. Najmiddin Komilov. Rumiyni anglash ishtiyoqi.